

OILAVIY NIZOLARDA FARZAND VA OTA - ONA MUNOSABATLARI

Usmonova Munira Sayfiddinovna, stajyor o'qituvchi
Safarova Gulasal Maxmud qizi, VI bosqich talabasi,
Jumaboyeva Klara Shokir qizi VI bosqich talabasi
Jizzax davlat pedagogika universiteti

usmonovamunira1996@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bir-birlariga nisbatan salbiy munosabatda bo'luvchi, bir-birlari bilan nizolashib turuvchi ota onalar, ularning turmush tarzini, bir-birlariga va farzandlarga nisbatan bo'lgan o'zaro munosabatlari, oila uchun u qadar ahamiyatga ega bo'lmagan nizo va uning sababi, oila a'zolarining o'zaro munosabatlarida jiddiy oqibatlariga olib kelishi o'rganilayotganligiga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak oila, an'analar, nizo, muvaffaqiyatli, namoyon bo'lishi, muhofaza, intizom, maqsad, ishonch, turmush tarzi, adekvat tasavvur.

Shaxsning oilaviy nizolar to'g'risidagi bilimlari, uning shaxsiy tajribasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, tasavvurlar tizimining shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. U yoki bu obekt yoxud hodisa haqida bilimning yo'qligi tasavvurning ham yo'qligidan darak beradi. Shaxsgacha yetib kelayotgan ma'lumotlar va ular asosida shakllanayotgan bilimlar aniq yoki noaniq, to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lib, biror narsa va hodisalar vositasida shakllanadi hamda bu bevosita ta'sir bo'lgani uchun ham tasavvurlar ana shunga muvofiq tegishli zaylda paydo bo'ladi.

Oilada kamol topayotgan yosh avlod dunyoqarashining to'g'ri shakllanishi oila a'zolari o'rtasida barqaror bo'lgan sog'lom munosabatlarning xarakteriga bog'liq. Bu esa, bola ongida ijobiy va salbiy munosabatlar, nizolar hamda ularning oqibatlari to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishiga zamin bo'ladi.

Ijtimoiy tasavvurlar doirasidagi oilaviy nizolar muammosining o'rganilishi jarayonida, asosan, er-xotin (ota-ona) o'rtasidagi munosabatlarni nazarda tutish maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki oila muhiti muvozanatini ota-ona saqlab turadi. Oila borasidagi ilmiy izlanishlardan yana shu narsa ma'lumki, oilaviy nizolarning asosiy qismi er-xotin o'rtasidagi nizolardan tashkil topadi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiya sohasida er-xotin o'rtasidagi nizolar, ularning kelib chiqishi va ushbu oilada tarbiyalanayotgan farzandlar dunyoqarashi, fe'l-atvoriga ta'siri hamisha dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Shu boisdan bu muammoni o'rganish uchun qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va ularning natijalari keng kitobxonlar ommasiga havola etilgan.

Hozirgi paytda xorijda olib borilayotgan qator ilmiy tadqiqot ishlari "Ayol - oila" tizimidagi ijtimoiy-psixologik muammolariga yo'naltirilgan. Yuksak darajadagi taraqqiyot ta'sirida ayollar psixologiya-sining ommaviy ravishda o'zgarayotganligi darajasi hamda oilaviy munosabatlar tizimida ro'y berayotgan yangilanishlar oqimini o'rganish, quyidagi ikki yo'nalishdagi tadqiqotlarni o'z ichiga qamrab olmoqda:

1) xotin-qizlar mavqeining professional sohada o'zgarishi va uning oilaviy munosabatlarga ta'siri;

2) ayollar xarakteridagi o'zgarishlar oqibatida, uning qarama-qarshi jinsga nisbatan munosabatini o'rganishga qaratilgan maxsus tadqiqotlar.

O'tkazilgan ko'plab tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, ayollar erlaridan ko'ra ko'proq oiladagi shaxslararo munosabatlar xarakteriga (erning xushmuomalaligi, qo'llab-quvvatlashi, qo'llamasligi, muloqot shakli va boshqalarga) e'tibor berishar ekan. Shaxslararo munosabatlar xususidagi qarashlarda, ayolning shaxs sifatida o'zini oilada namoyon etish jarayonida unga ta'sir etuvchi omillarning ahamiyati katta ekanligi e'tirof etiladi. Zamonaviy ayollardan, ayniqsa, ularning ichida biror kasb yoki ma'lumotga ega bo'lganlarining o'zini-o'zi baholashi va "Men" obrazlari alohida tadqiqotlar predmeti sifatida o'rganilgan. Natijalarning ko'rsatishicha, bu ayollarda boshqa toifadagilarga nisbatan aqlli, bilimdon, jozibali, muloqotga kirishuvchanlik xususiyatlari kuchliligi aniqlangan (89. 312). Bu holat esa, o'z navbatida, farzandlar ongida turli xil (sog'lom - nosog'lom) munosabatlar to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishiga turtki bo'ladi.

Shunday qilib, er-xotin munosabatlarining shakllanishi, o'zaro munosabatlar tizimida qanday namoyon bo'lishi, avvalo, oilada ayolning professional mavqei va ma'lumotlilik darajasiga bog'liqdir. Bu holat mavjud muammo yechimining bir tomoni hisoblanadi. Ma'lumki, oila doimo bolalar tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan jamiyat bo'g'inidir. Shu bois ham, oilaning katta va kichik a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yoritilgan ayrim tadqiqotlar natijalarini nazariy jihatdan tahlil qilish ham bu o'rinda maqsadga muvofiqdir.

An'anaviy oilalarning bosh vazifasi, bu - bola tarbiyasidir. Mohiyatan, mazkur jarayon oilani tashkil etuvchi shaxslarning o'zaro munosabatlari xarakteri bilan bog'liqdir. Xorijlik qator mutaxassislar, mazkur muammoni yoritish maqsadida, ijtimoiy mehnatdagi ayol bandligining bola tarbiyasiga ta'siri hamda oiladagi zamonaviy erkak mavqeini o'rganishga bag'ishlangan muhim ilmiy izlanishlarni olib borishgan. Tahlillar shundan dalolat beradiki, onasi ijtimoiy mehnatda ishtirok etadigan qizlar faolroq, mustaqilroq, maqsadga intiluvchanroq bo'lib, uy bekalarining qizlariga nisbatan raqobatga intiluvchanroq va dadilroqdirlar. Ulardagi shaxs sifatlari feminin xislatlar shkalasi bo'yicha tekshirilganda, ayollik fenomenlari indeksi pastroq ekanligi hamda ijtimoiy hayotning turli vaziyatlariga ko'nikish darajasi osonroq ro'y berishi ma'lum bo'ldi. Shu ayol mavqeining o'g'liga ko'rsatadigan bevosita ta'siri o'rganilganda esa, uning o'ziga xos ekanligi, ya'ni xotin-qizlarga nisbatan yangicha qarash ruhi mavjudligi kuzatilgan. Oilaviy munosabatlar jarayonida esa, an'anaviy ustanovkalardan chekinish aniqlangan.

Otaning bolalarga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, zamonaviy erkakning bolalarida shaxs sifatlarini tarbiyalashdagi roli onalarnikidan past bo'lib chiqdi.

Hozir paytda muammolarni amaliy jihatdan bartaraf etish borasida ham qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, chexiyalik olim Stanislav Kratoxvil o'z qarashlarida, oiladagi kelishmovchilik-larning bosh sababi sifatida,

intim munosabatlardagi buzilish va funksional patologiya hodisalarini ko'rsatib o'tgan. O'z tajribasi asosida bunday buzilishlarning oldini olish yo'lida, zamonaviy psixologiyaning ilg'or metodlaridan biri hisoblangan trening – o'rgatish yordamida oilaviy munosabatlarni me'yorida shakllantirishga harakat qilgan.

G'.B. Shoumarov ilmiy izlanishlari, er-xotin o'rtasidagi nizolar, ularning sabablari, shakllari, tashqi ifodalanishi, nizo tashabbuskorini aniqlash va bartaraf etish borasidagi zamonaviy tahlil berganligi bilan ajralib turadi. Ammo olimning tadqiqotlari doirasiga oilaviy nizolarning bolalar ongidagi ijtimoiy tasavvurlar ko'lamini o'rganish maqsadi kirmagan.

G'.B. Shoumarovning ota-ona va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning mohiyati avvalo er va xotinning o'zaro munosabatidan kelib chiqishi to'g'risidagi fikri diqqatga sazovordir: "Oilaviy nizolar-ning muhim xarakterlaridan biri – bu er va xotin o'rtasidagi nizodir", – deb ta'kidlaydi muallif. Baxtli, mustahkam oilada o'sgan bolalar tasavvurlarida, deb ta'kidlanadi kitobda, bo'lajak oilaviy hayot idealdek ko'rinishda idrok qilinadi. Yaxshi ota va yaxshi ona qo'lida tarbiya ko'rgan, ular munosabatlaridagi muammolarni ko'rmagan farzandlar oila qurishgandan so'ng, o'g'il bolalar xuddi o'z otasidek va qizlari onalaridek "ota", "ona", "er", "xotin" bo'lishni orzu qiladilar. Chunki ular o'z ot-onalari misolida, bir-birlariga nisbatan salbiy munosabatda bo'luvchi, nizolashib turuvchi er-xotin obrazlarini ko'rmagan (174. 146-152). Bu holat ayniqsa o'zbek mentalitetiga xos bo'lib, yaxshi, mustahkam, baxtli oilalar aksariyat hollarda bo'lib o'tadigan o'zaro nizolarni bolalardan, kattalardan, qaynona-qaynotadan pinhon tutadilar. G'.B. Shoumarov va uning shogirdlari fikricha, ideal oilada tarbiya topgan yoshlar mustaqil oila qurishgach, ziddiyatlar sharoitiga psixologik tayyor bo'lmaganligi bois, nizoli vaziyatdan chiqish yo'llarini topa olmasdan salbiy xatti-harakatlarni namoyon etishga moyil bo'lib qoladilar.

Oila qanday bo'lishidan qat'iy nazar, nizolardan mutlaqo holi (himoyalangan) bo'la olmaydi. Chunki oilalardagi shaxslararo munosabatlar jarayoni odatda nizosiz kechmaydi. Bu nizolar ma'lum darajada er-xotin munosabatlarini rivojlantiruvchi katalizator vazifasini o'taydi. Nizolarning xilma-xilligi hamda alohida vaziyatlarda namoyon bo'lish xususiyatlarini, olimlar, sub'ektning o'ziga, uning shaxsiy, psixologik xislatlari, yoshi, jinsi, idrok qilishi darajasi kabi omillarga bog'liq bo'ladi, – deb e'tibor etishadi.

Fikrimizcha, normal, tabiiy sanalgan nizolar va ularning oila a'zolari tomonidan jipslashgan ravishda hal qilinishi, guvohlarda nizolar to'g'risida konstruktiv tasavvurlarni shakllantiradi. Notinch oiladagi salbiy, ziddiyatlarga boy va takrorlanuvchan janjallar orqali sodir bo'ladigan nizo esa, aksincha, bolada oila va undagi munosabatlar xususida destruktiv tasavvurlarni uyg'otadi.

Shuningdek, oilaviy hayotda ro'y berishi mumkin bo'lgan nizolarga birdek salbiy jihatdan qarayverish ham, yoki ularni birdek oqlash ham maqsadga muvofiq emas. Yoshlar oilaviy hayotda ro'y beradigan nizolarga tayyor bo'lishlari, er-xotinning bir-birlariga moslashuvlari uchun o'zaro munosabatlarining rivojlanishini ta'minlovchi, har ikkalovining, ya'ni "biz"ning manfaatiga qaratilgan biriktiruvchanlik imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali salbiy oqibatlarga olib keluvchi nizolarga aylantirib yubormaslikka o'rganishlari lozim.

Psixolog olimlarimiz 90-yillar boshida o‘tkazishgan qator ilmiy izlanishlari asosida oilaviy nizolarning o‘smirlardagi suisidal xulq-atvorga ko‘rsatadigan ta‘sirini aniqlaganlar. Jumladan, B.M. Umarov tadqiqotlarining ko‘rsatishicha o‘smirlarda qayd etilgan suisidal moyillikning 34,8%ining asosiy sababini “oilaviy nizolar” tashkil etishi isbotlangan. Natijalardan ko‘rinishicha, o‘smirlardagi suisidal xulq-atvor va unga moyillik, asosan, psixologik muhit yaxshi bo‘lmagan, ota-onalar munosabatlarida ijtimoiy zid harakatlar kuzatiladigan (janjalkashlar, ichuvchilar, giyohvandlar kabi), madaniy darajasi past, o‘zaro aloqalarda avtoritar uslub ustuvor bo‘lgan, kattalar tomonidan bolaga jismoniy va ma‘naviy tazyiq ko‘rsatiladigan, bir-birlarini tushunmaslik holatlari mavjud oilalarda paydo bo‘ladi. Yuqorida sanab o‘tilgan omillarning barchasi boladagi nafaqat oila va uning qadriyatlarini, balki kelajak hayot to‘g‘risida ham noto‘g‘ri, pessimistik tasavvurlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Akramova F. A., Abdullayeva R. M. Sharq mutafakkirlarining oila xususidagi qarashlari. T.: «Shams ASA», 2002
2. Davletshin M.G., Shoumarov G ‘B. Zamonaviy o‘zbek oilasi 4a uning psixologik xususiyatlari / O ‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani m a’ruzalari qisqacha bayoni. — Toshkent, 1993
3. Oila: ijtimoiy himoya omillari. Ilmiy-ommabop maqola- / lar to‘p)ami., /Prof. V. M. Karimova tahriri ostida. T.: 2007
4. Karimova V. M. Oilaviy hayot psixologiyasi. T.— 2006
5. Qarshiboyeva G. Ozligingni angla. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-52.
6. Abdurasulov R., Qarshiboyeva G. Психологик маслаҳат. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Qarshiboyeva, G. (2021). The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
8. Абдурасулов, Р. А., & Каршибоева, Г. А. Психологик тренинг асослари. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент–2019 йил.
9. Ибайдуллаева, У., & Абдурасулов, Р. (2021). Низолашув даражасини ўсмирларнинг характер хусусиятларига таъсири. *Общество и инновации*, 2(10/S), 499-505.
10. Ибайдуллаева, У. Р. Ўсмирлар ўртасидаги низолар ва уларни бартараф этиш. *Профессор-ўқитувчилар ва талабаларнинг I илмий-амалий конференцияси, МИРЗО УЛУГ ‘БЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ЖИЗЗАХ ФИЛИАЛИ//2020/5//37-39б.*
11. Ibaydullayeva, U. (2022). DIQQATNI JAMLASH QOBILIYATINING PASAYISHI VA BUZILGAN KONSENTRATSIYANING OLDINI OLIISHDA PSIXOLOGIK YORDAM BERISH USULLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(6)

12. Ibaydullayeva, U., & Mamatqulova, Y. (2022). ЎСМИРЛАР ЎРТАСИДАГИ ЗИДДИЯТЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА ОИЛАНИНГ ЎРНИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(6).
13. Ibaydullayeva, U. (2021). СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ТРУДНО ВОСПИТУЕМЫХ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (2).
14. Абдурасулов, Р. А., & Ибайдуллаева, У. Р. The influence of motivation on the formation of personality traits. *Journal of Physical Education and Sport (JPES)*.